

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH MASALALARI

Amanyo'lov Sindor Faxriddin o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti,
Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi, 3-darajali yurist
amanyolovs@gmail.com

Annotatsiya: maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirish, uning institutlarini rivojlantirishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni va rolining muhimligi va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda qo'llaniladigan usul va vositalar va ularni hayotga qo'llash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy negilizm, huquqiy idealizm, o'zini-o'zi boshqaruvchi organlar.

KIRISH

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlatni rivojlangan fuqarolik jamiyatisiz shakllantirib bo'lmaydi. Aksariyat mamlakatlar demokratik-huquqiy davlat, jumladan fuqarolik jamiyatini shakllantirishni davlatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati – bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqeいi yuksak bo'ladi. Albatta, bu kabi jamiyat o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Buni shakllantirishda birinchi navbatta fuqarolar jumladan fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati eng muhim masala sifatida qaraladi. Maqolada huquqiy madaniyatni rivojlantirish yo'lidagi asosiy to'siqlar ko'rib chiqiladi, shuningdek, mumkin bo'lgan yechimlar taklif etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maqolani yozish davomida birinchi navbatda milliy qonunchiligidan jumladan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9- yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi PF-5618-sonli farmonlariga va Vazirlar mahkamasining "2022-2023-yillarda jamiyatda

huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" qarorga murojaat qilinadi.

Undan tashqari fuqarolik jamiyati chuqur tadqiq qilish maqsadida Aristotel, Mark Tulliy Sitseron, Farobi, Abu Ali Ibn Sino kabi olimlar fikri va nazariyalari ko'rib chiqiladi.

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi bиринчи Prezidenti I. Karimov quyidagilarga e'tabor qaratgan edi "Biz uchun fuqarolik jamiyati-ijtimoiy makon. Bu makonda qонун ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi.

Yuqoridagi makonni yuksak huquqiy ong va madaniyatsiz yaratib bo'lmaydi albatta. Shu maqsadda davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan bir qancha normalar qabul qilingan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9- yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi PF-5618-sonli farmonlari qabul qilinga bo'lib, unga muvofiq:

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiysi va Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan.

Farmonda hozirgi zamonda huquqiy madaniyatni shakllantirishda quyidagi to'siqlarimiz borligi aniq ko'rsatib o'tilgan:

birinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas. Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyalari aholi, ayniqsa, davlat xizmatchilari ongiga yetarli darajada singdirilmayapti;

ikkinchidan, uzlusiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilmayapti, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlari, milliy qadriyatlariga tayanilmayapti;

uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari

bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan, ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmagan;

to'rtinchidan, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari belgilanmagan;

beshinchidan, jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti;

oltinchidan, huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayapti, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yetarli emas;

yettinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlari mavjud emas, bu borada tadbirlar nomigagina tashkil etilmoqda, huquqiy bilimlarni yuksaltirish bo'yicha huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish, ilmiy izlanishlarni olib borish ishlari samarasiz amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi mavjud muammo va kamchiliklar "Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan g'oya ostida Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini (keyingi o'rnlarda — Konsepsiya) qabul qilish va amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va huquqiy tarbiya va madaniyatni rivijlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 12.05.2022 yildagi 259-son qarori bilan 2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unaga ko'ra:

2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi quyidagilarni nazarda tutadi:

- oilada va ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:
 - notinchlik va zo'ravonlikning bolalar tarbiyasidagi salbiy oqibatlari haqida ma'lumot yetkazish va ularning oldini olish;
 - oliy ta'lim muassasalarini hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlarida inson huquqlari, ayollar huquqlari, bola huquqlari o'quv kurslarini tashkil etish;
 - ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga imtiyozlar va moddiy yordam berish masalalari bo'yicha axborot-targ'ibot ishlari va boshqalar;

- davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:
 - “Huquqiy savodxonlik oyligi”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” va “Konstitutsiyaviy huquq oyligi”ni o‘tkazish;
 - huquqiy savodxonlikka oid minimal talablar bo‘yicha o‘qitish va ularning huquqiy bilimlarini baholash va boshqalar;
- aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:
 - “bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga” loyihasi;
 - nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun xayriya aksiyalari;
 - murojaatlarni tahlil qilish va tahlil natijasiga ko‘ra manzilli huquqiy targ‘ibot va boshqalar;
- jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltishda huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullarini joriy qilish, shuningdek, OAVning rolini kuchaytirish:
 - videoroliklar tasvirga olish hamda OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqatish;
 - aholi va tadbirkorlik sub’yektlariga huquqiy masalalar bo‘yicha yechimlarni beruvchi portallarni huquqiy mavzudagi materiallar bilan boyitish;
 - “Huquqiy axborot” telegram kanali qamrovini kengaytirish va boshqalar;
- yuridik ta’limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, huquqiy madaniyatni yuksaltishning ilmiy asoslarini tadqiq etish (yuridik oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar bilan ishlash” mavzusini kiritish; yuridik sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib kelayotgan tadqiqotchilar uchun onlayn xizmatlarni ko‘rsatish imkonini beruvchi elektron platforma yaratish).

Darhaqiqat inson qachon o‘zini erkin his qiladi, qachonki inson qonun himoyasida ekanligiga ishonchi komil bo‘lsa, boshqa shaxs yoki davlat uning huquqlarini buzmasligini, buzsa- davlatning majburlov kuchi ishlashini va huquq normalarining hammaga (kim bo‘lishida qat’iy nazar) nisbatan bir xil ishlashini ijtimoiy muhitda ko‘rsa va idrok qilsa.

MUHOKAMA

Yuqoridagi 2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi-bu shunchaki umumiyl yondashuv emas, balki jamiyatdagi turli toifa vakillarining huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish uchun alohida-alohida ishlash kerakligini ko‘rsatgan qaror bo‘lib qabul qilindi.

Jumladan:

- oilada va ta'lif muassasalarida huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar;
 - davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar;
 - aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar;
 - jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini joriy qilish, shuningdek, OAVning rolini kuchaytirish.
- Ko'rinish turgandek aholini umumiyligi 4 toifaga ajratilayabti va ular bilan alohida ishlarni tashkil etish kerakligi bo'yicha vazifalar belgilanayabti. Misol uchun aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagilarni nazarda tutayabdi:

- "bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" loyihasi;
- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun xayriya aksiyalari;
- murojaatlarni tahlil qilish va tahlil natijasiga ko'ra manzilli huquqiy targ'ibot va boshqalar;
- "Huquqiy savodxonlik oyligi", "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" va "Konstitutsiyaviy huquq oyligi"ni o'tkazish;
- huquqiy savodxonlikka oid minimal talablar bo'yicha o'qitish va ularning huquqiy bilimlarini baholash va boshqalar belgilab berilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hech qaysi davlat fuqarolarining huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirmsandan turib, o'zining maqsadi bo'lgan fuqarolik jamiyatini qurorgan emas. Fuqarolik jamiyatini qurish uchun aholining turli qatlamlari bilan alohida ishslash va uning uzluksizligini ta'minlash talab qilinadi. Avvalo ta'lif muassasalarida o'quvchi yoshlar bilan ishslash uchun oila hamkorligi kerak bo'ladi. Ya'ni maktabda boshqacha huquqiy tarbiya oilada boshqacha huquqiy tarbiya berilsa, o'quvchi yoshlarda huquqiy negilizm va huquqiy idealizm shakllanadi.

Undan tashqari shaxsiy o'rnak shakllanishi kerak. Ya'ni eskitdan bir gap bor "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan. Nazariy olgan bilimlar amaliyot va amalga to'g'ri kelmasa, albatta amalga qarab ish ko'riladi. Buning uchun tarbiya beruvchilar bilan ham ishslash va ularga alohida yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – T 2021 yil
2. X.T.Odilqoriyev- Davlat va huquq nazariyasi darslik–Toshkent: 2018. – 480-510 b.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9- yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-5618-sonli farmoni
4. Vazirlar mahkamasining “2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori
4. Internet ma`lumotlari.